

Mavzu: PhotoShop dasturli grafik muharririda ishlash asoslari. PhotoShop interfeysi

Fan: Informatika

Dars № 3

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: O'quvchilarga photoShop dasturli grafik muharririda ishlash asoslari. PhotoShop interfeysini o'rgatish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarni mustaqil fikrlarini oshirish va rivojlantirish.

Tarbiyaviy: Vatanini sevish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmatda bo'lish, odob-axloq qoidalariga rioya qilishni singdirish.

Tayanch va fanga oid kompetensiyalar:

TK: *kognitivlik ko'nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o'z xatti-harakatini muqobil baholas;*

FK: *tasvirlarni grafik uskunalar yordamida to'plashni biladi, amaliyotda qo'llay oladi;*

Dars usuli: suhbat, tushuntirish, "Savol-javob" metodi, "Rasml boshqotirma", "To'g'risini top", "Yosh aktyor" o'yinlari.

Dars turi: Yangi bilim berish.

O'quv jarayonining amaliga oshirish texnologiyasi:

O'qitish usullari: blits-so'rov, savol-javob.

O'qitish shakllari: guruhlar ishlash, frontal, jamoaviy.

O'qitish vositalari: 11-sinf darsligi, mavzuga oid dars taqdimoti,

Monitoring va baholash: og'zaki va test nazorati, amaliy vazifalar.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

O'quvchilar bilan salomlashish

Xonani va o'quvchilarni darsga tayyorliklarini kuzatish

Yo'qlamani aniqlash

Navbatchi axboroti.

Siyosiy daqiqa.

II. Darsning maqsad va vazifalarini qo'yish.

III. Tayanch bilimlarning faollashtirish.

Uyga vazifalarini tekshirish va o'tilgan mavzuni mustahkamlash.

1. Ikki o'lchamli kompyuter grafikasi turlarini, ularning afzalliklarini

2. Rastrli grafika o'lchami nima va uni saqlash uchun qancha xotini kerak bo'ladi?

3. Fraktallar haqida nimalarni bilasiz?

4. Uch o'lchamli grafika haqida nimalarni bilasiz?

Kvadrat chizing. Uni to'qqizta kvadratga ajrating. Burchaklarda- gi to'rtta kvadratni olib qolib, qolganlarini o'chirib tashlang. Qolgan kvadratlarni ham shu usulda qayta ishleng

IV. Dars materiallarini tushuntirish (materiallarni tushuntirish dars prezentatsiyasi va videorolik, amaliy harakatlar, tayyor ishlar ko'rgazmasini namoyish qilish bilan birgalikda olib boriladi).

Nazariy qism:

Rastrli grafikani, masalan, fotosuratlarni, tahrirlash ko'p uchraydigan amal. Fotosuratlarni olish paytida yo'l qo'yilgan xatoliklarni tuzatish, mavjud fotosuratlardan yangisini montaj qilish, fotosuratlardagi ortiqcha narsalarni olib tashlash, fotosuratlarning muammoli joylarini boshqa qismiga almashtirish mumkin. Fotosuratga jilo berish, fotosuratga turli filtrlarni qo'llab ularni yangi ko'rinishga o'tkazish, fotosuratlarga matn qo'shish, fotosuratlarni boshqa sirtlarga, masalan, ko'zga sirtiga o'tkazish uchun shaklini o'zgartirish bu amallardan ba'zilar xolos.

Fotograflarning ishini osonlashtirish uchun qator dasturlar ishlab chiqilgan. Ular orasida eng mashhur Adobe kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan va qo'llab-quvvatlanadigan dasturidir. Uning dastlabki versiyasi 1990-yilda yaratilgan bo'lib, hozirgi paytgacha yigirmaga yaqin versiyalari sotuvga chiqarilgan.

Ulardan dastlabki yettitasi Adobe PhotoShop 1, 2, ... 7 nomlari bilan sotuvga chiqarilgan. 2007 yildan boshlab

V. Amaliy ish:

VI. Darsga yakun yasash:

O'quvchilarni olgan bilimlari hamda qilgan ishlarini nazorat qilib baholash, ularni yo'l qo'ygan kamchiliklarini to'g'irlash.

VII. Uyga vazifa berish:

Dars mavzusi bo'yicha 6 ta test tuzing

O'qituvchi:

J.Bozorov